

PSIXOLOGIYDA ONG EVALYUTSIYASI VA ONGSIZLIK HOLATI

Ahadov Feruzbek Vafo o'g'li

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti.

Amaliy psixologiya 2 bosqich talabasi.

Anatatsiya: *Ushbu maqolada opsixika va ongning taraqqiyoti, ongning tizimli psixologiyasi, ongning funksional psixologiyasi, ong psixofizologiyasi, ong haqida umumiy ma'lumotlar, psixologiyada ongsizlik, onglilikning ongsizlikdan farqi, ongsizlik holatlari, anglanmagan psixik jarayonlarning umumiy xususiyatlari, ongli harakatlarning anglanmagan mexanizmlari, ong usti jarayonlari, psixik hodisalar va insonlarning kundalik hayotini o'rganish ongli harakatlar ahamiyatining ochib berilishi haqida so'z yuritiladi.*

Kalit sozlar: *Ong, ongsizlik, tush ko'rish, subsensor, gipnotik holat, ong osti, biologik, tabiiy ehtiyojlar, gallyutsinatsiya, hulq-atvor, idrok.*

Ong- ong inson tomonidan voqelikni aks ettirishning yuksak darajasi. Ong inson tomonidan voqelikni aks ettirishning yuksak darajasi bo'lib hisoblanadi. Inson ongining birlamchi psixologik xossasi o'zini bilish sub'ekti sifatida his etish, mavjud va tasavvurdagi voqelikni xayolan tasvirlash layoqati, shaxsiy psixik va hulq-atvor holatlarini nazorat qilish, ularni boshqara olish, atrofdagi reallikni tasavvurlar shaklida ko'rish va idrok qilish layoqati kabilarni o'z ichiga oladi. O'zini bilish sub'ekti sifatida his etish insonning olamni o'rganish va bilishga, ya'ni, olam haqida u yoki bu darajada aniq bilimlarni egallashga tayyor va layoqatli, bu olamdan bo'lak qilingan mavjudot sifatida anglashini bildiradi. Ongsizlik (uyqu, gipnoz, kasallik va sh.o.) holatlarida bunday layoqat yo'qoladi.

Inson tabiat muhitiga oddiy holatda moslashibgina qolmasdan, ongli ravishda mehnat qurollari yasagan holda, uni o'ziga bo'ysundirishga intiladi. SHu asnoda inson turmush tarzi ham o'zgarib boradi. Atrofdagi tabiatni o'zgartirish maqsadida mehnat qurollari yasash qobiliyati ongli ravishda mehnat qilish layoqati mavjudligini bildiradi. Mehnat – insonni yashash sharoitlari bilan ta'minlash, shuningdek, moddiy va ma'naviy boylik yaratish maqsadida tabiatga ta'sir ko'rsatishni amalga oshirishdan iborat bo'lgan, faqat inson uchun xos maxsus faoliyat turi. SHunday qilib, mehnat faoliyati inson ongining ahamiyatga molik bo'lgan xossasidir.[1, 432]

SHunday qilib, ong – psixik taraqqiyotning yuksak darajasi bo'lib, ob'ektiv reallikka nisbatan faqat insonga xos bo'lgan odamlar ijtimoiy-tarixiy faoliyatining umumiy shakllari vositasidagi ob'ektiv reallikka bo'lgan munosabatdan iborat. Amaliy nuqtai nazar bo'yicha ong sub'ekt ichki olamining bevosita ko'z oldidagi sezgi va aqliy obrazlarining uzluksiz o'zgaruvchi yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Ong qator protsessual va mazmundor xususiyatlarga ega

Inson ongining paydo bo'lishi va rivojlanishining asosiy sharti bo'lib odamlarning hamkorlikdagi samarali nutq vositasidagi qurolli faoliyati hisoblanadi. Bu faoliyat odamlarning muloqoti va o'zaro ta'siri, ishning taqsimlanishini talab etadi. U hamkorlikdagi faoliyat ishtirokchilari tomonidan hamkorlik maqsadi sifatida anglanadigan mahsulot yaratishni taqazo etadi. Individual ong insoniyat tarixi boshlanishida jamoaviy faoliyat jarayonida uni tashkil etishning zarur sharoiti sifatida yuzaga keldi: axir odamlarga u yoki bu faoliyat bilan shug'ullanishlari uchun ularning har biri hamkorlikdagi faoliyat maqsadini aniq tasavvur qilishlari lozim. Bu maqsad aniqlanib, so'z bilan ifodalanishi kerak. Avval jamoa ongi, undan so'ng individual ong paydo bo'ladi, bunday ketma-ketlikdagi rivojlanish faqat ong filogenezi uchun emas, balki ong ontogenezi uchun ham xarakterlidir. Bolaning individual ongi jamoa ongi asosida va uning mavjudligi sharoitida uni o'zlashtirish yo'li orqali shakllanadi.[2, 219]

Psixikaning quyi darajasi ongsizlikdir. Ongsizlik – bu shunday psixik jarayonlar va hodisalar yig'indisiki, unda inson o'z xatti-harakatlariga javob bermaydi, anglamaydi. Bunga tush ko'rish, ba'zi patologik hodisalar, alahlash, gallyutsinatsiya kabilar kiradi. Onglilikdan farqli o'laroq, ongsizlikda amalga oshirilayotgan harakatlarni maqsadli nazorat qilish, shuningdek, natijalarini baholash imkoniyati mavjud emas. Ongsizlik tushunchasi psixologik va falsafiy fikrlarning turli yo'nalish vakillari tomonidan quyidagi ko'rinishlarda ta'riflanadi:

- axborotni qayta ishlashni bu jarayonni sub'ekt kechinmalari darajasida aks ettirmagan holda amalga oshiruvchi miya faoliyati sifatida;
- sub'ekt tomonidan anglanmagan kechinmalar sifatida.[3, 358]

Ongsizlik sohasiga: biologik (jinsiy mayllar, tabiiy ehtiyojlar, ozuqaga bo'lgan ehtiyoj va boshqalar); tilaklarni siqib chiqarish (kimningdir muhabbatini qozonishga behuda urinish, amalga oshmagan orzular, yashirin hafagarchilik); tushda sodir bo'ladigan psixik hodisalar (tush ko'rish); sezilmaydigan, lekin real tasir ko'rsatadigan seskantiruvchilarga nisbatan javob reaksiyalari ("subsensory" tasirlanishlar); avval anglanmagan, lekin takrorlanishlar tufayli avtomatlashgan va shuning uchun anglanmaydigan bo'lib qolgan harakatlar; maqsadi anglanmagan faoliyatga nisbatan ayrim mayillar va boshqalar kiradi. Anglanmagan hodisalar bemor odam psixikasida yuzaga keladigan alahlash, gallyutsinatsiyalar kabi ayrim potologik hodisalar ham kiradi.

Ong usti hodisalari; shaxsning kelajakdagi tilak mohiyatiga ega bo'lgan faoliyatning anglanmagan qo'zg'atuvchilari (anglanmaydigan motivlar va ma'noli mayillar). Bu sinf hodisalari sub'ektning gipnotik holatdan chiqqandan so'ng hulq-atvorini tadqiq qilishda aniqlangan edi.

Z. Freyd nazariyasiga binoan inson psixikasida uch soha: ong, ongosti va ongsizlik mavjud. Ong darajasiga u inson tomonidan anglanadigan va nazorat qilinadiganlarning barchasini kiritgan. Ong osti sohasiga Freyd yashirin yoki latent bilimlarni kiritgan edi. Bu insonga tegishli bo'lgan, lekin ayni vaqtda ongda mavjud bo'lmagan bilimlardir. Bilimlar muayyan rag'batning yuzaga kelishida dolzarblashtiradi, maslan, "Yer-

sayyora". Shunday qilib, ong- bu muz tog'ning ko'zga ko'rinayotgan qismi, uning katta qismi esa inson tomonidan anglangan nazoratdan yashirilgan.[4, 261]

Ongsizlik sohasi, Freyd bo'yicha, umuman boshqa xossalarga ega. Ulardan biri bu sohaning mazmuni anglanmasligidan, lekin hulq-atvorimizga katta ta'sir ko'rsatishdan iborat. Ongsizlik sohasi harakatchandir. Boshqa xossi ongsizlik sohasida joylashgan axborotning onga qiyinchilik bilan o'tishdan iborat. Bu ikki mexanizm: siqib chiqarish va qarshilik ko'tarishlarning faoliyati bilan tushubtiriladi.

Shunday qilib, insonning psixik faoliyati, uning psixikasi bir- biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan uch daraja: ong osti va onglilikdan faoliyat ko'rsatadi. Psixik faoliyatning ongsizlik darajasi tug'ma instinktiv- refleksiga asoslangan faoliyat hisoblanadi; ong osti darajasi - ma'lum individ tajribasiga hulq- atvorining umumlashtirilgan, avtomatlashtirilgan bir qolipdagi nusxalarni - malakalari, ko'nikmalari, odatlari, ichki tuyg'ulari.

Ong egasi bo'lgan inson motivatsiyalangan harakatlarni bajarishga, ko'zlangan maqsadga erishishga yoki ma'lum vazifani bajarishga qodir, chunki inson o'zining hulq-atvor yoki holatni anglaydi va nazorat qiladi. Shunday bo'lsa ham, odam psixikasi uchun ob'ekt tomonidan anglanish darajasiga ko'ra farqlanadigan psixik jarayonlar va hodisalarning ikki katta gurihi xosdir. Inson ongidan kechishi yoki ifodalanishi qisman aks etuvchi psixik jarayonlar va hodisalar. Bunday jarayonlar anglanmagan jarayonlar guruhiga talluqlidir.[5, 640]

Barcha anglanmagan psixik jarayonlar uch bo'limga ajratilqdi: ongli harakatlarning anglanmaydigan mexanizimlari, ongli harakatlarning anglanmagan qo'zg'atuvchilari va "ong usti" jarayonlari. O'z navbatida ongli harakatlarning anglanmaydigan avtomatizmlar; anglanmaydigan mayl hodisalar: ongli harakatlarning anglanmaganligi.

Avvalambor, anglanmaydigan hodisalar ongimizda turli shakillar; idrok illyuziyalari, mayl xatolikalar, Freydning noyob hodisalar, ong usti jarayonlarining yig'indi natijasida namoyon bo'lishini qayd etish lozim. Anglanmaydigan jarayonlar haqidagi ma'lumotlarga ko'nikmalar shakillanishining o'sishini tahlil qilishda, shuningdek, tadqiqotchining turli fizologik indikatorlardan olgan axborotini o'rganishda ega bo'lish mumkin (A.R.Luriya)[6, 135]

Bundan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki , anglanmagan jarayonlarni o'rganishda biz xuddi o'sha boshlang'ich malumotlar ong , hulq-atvor faktlari va fizologik jarayonlarni qo'llaymiz. Shunday qilib , inson psixikasi juda murakkab bo'lib , o'zida faqatgina ongni emas , balki , sub'ektni tomonidan nazorat qilmaydigan jarayonlarni ham birlashtiradi. Ongsizlik sohasi murakkab va tartibli zinapoya tuzilishiga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Маклаков А. Г. Общая психология.-СПб.: Питер, 2001-387-388 б , 158 б (mazmunidan foydalanildi)
2. David G. Myers "Psychology". NY, 2010. Worth publishers (mazmunidan foydalanildi) 118p.
3. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya.T,2003-yil.
4. Markova A.K. Psixologiyada professionalizm. – M.: 1996-yil.
5. Nishonova Z. T. Psixologik xizmat.- Nizomiy nomidagi TDPU,2005-yil.